

SO‘Z BIRIKMASI VA OTLI BIRIKMA TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TALQINI

Ishto‘xtayeva Durdona Furqat qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada so‘z birikmasi va otli birikma tushunchalarining lingvistik talqini yoritilgan. So‘z birikmasining sintaksisdagi o‘rni, uning so‘z, sintagma va gapdan farqli jihatlari tahlil qilingan. So‘zlarning hokim va tobe munosabat asosida birikishi hamda bitishuv, moslashuv va boshqaruv kabi sintaktik aloqalar izohlangan. Otli birikmalarning tuzilishi, struktur-semantik xususiyatlari, grammatik shakllanishi va gapdagi vazifalari misollar asosida ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, qaratqich-qaralmish munosabatlari hamda sintaktik derivatsiya jarayonidagi operatorlarning roli yoritilgan. O‘zbek va ingliz tillaridagi otli birikmalar qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijasida otli birikmalar nutqning aniqligi va ifodaliligini ta‘minlovchi muhim sintaktik birlik ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: *sintaksis, so‘z birikmasi, otli birikma, hokim so‘z, tobe so‘z, bitishuv, moslashuv, boshqaruv, sintaktik derivatsiya.*

ОТНОШЕНИЕ ГЛАВНОГО И ЗАВИСИМОГО КОМПОНЕНТОВ В ИМЕННЫХ СЛОВСОЧЕТАНИЯХ

Иштухтаева Дурдона Фуркат кизи
*Студентка Самаркандского государственного
института иностранных языков*

Аннотация

В данной статье рассматривается лингвистическая интерпретация понятий словосочетания и именного словосочетания. Анализируется место словосочетания в синтаксисе, а также его отличительные особенности по сравнению со словом, синтагмой и предложением. Освещаются отношения главного и зависимого компонентов, а также синтаксические способы связи: примыкание, согласование и управление. На основе примеров раскрываются структура, структурно-семантические особенности, грамматическое оформление и синтаксические функции именных словосочетаний. Особое внимание уделяется отношениям притяжательности и роли операторов в процессе синтаксической деривации. Проводится сопоставительный анализ именных словосочетаний в узбекском и английском языках, выявляются их общие и отличительные черты. В результате исследования обосновывается, что



именные словосочетания являются важной синтаксической единицей, обеспечивающей точность и выразительность речи.

Ключевые слова: синтаксис, словосочетание, именное словосочетание, главное слово, зависимое слово, примыкание, согласование, управление, синтаксическая деривация.

Sintaktik qurilishning ikki asosiy tipi mavjud: gap va soʻz birikmasi. Har ikkisi ham sintaksisning asosiy tekshirish obyektidir. Sintaksis grammatikaning bir boʻlimi sifatida soʻz birikmalarida va gaplarda soʻzlarning birikish yoʻllari, gap va uning tiplari, ularning qurilishi, vazifasi, qoʻllanishi; soʻz birikmalari, ularning strukturasi, shakli, birikma tarkibidagi soʻzlarning birikish yoʻllari va tiplari, birikma tarkibidagi soʻzlarning vazifasi, birikmalarning turlari va shu kabi qator masalalarni tekshirish bilan shugʻullanadi. Akademik V. V. Vinogradovning haqqoniy ravishda koʻrsatishicha, soʻz birikmalarining grammatik mohiyati, hajmi va chegarasi, formasi va maʼnosi, soʻz va gapga munosabati kabi masalalar hali turli tillarda kam oʻrganilganligicha qolib kelmoqda. Bu gaplar turk tillariga, jumladan, oʻzbek tiliga ham toʻliqligicha taalluqlidir. Otli birikmalar tilshunoslikning sintaksis boʻlimida oʻrganiladigan muhim birliklardan biri hisoblanadi.¹³ Soʻz birikmalari umumiy holda ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzlarning maʼno va grammatik jihatdan bogʻlanishidan hosil boʻladi. Shu jihatdan, otli birikmalar bosh komponenti ot bilan ifodalangan birikmalar sifatida ajralib turadi. Otli birikma – bu bosh soʻzi ot turkumiga mansub boʻlgan hamda boshqa soʻzlar bilan maʼno va grammatik jihatdan bogʻlangan sintaktik birlikdir. Bunda bosh soʻz yetakchi rol oʻynaydi, ergash komponent esa uni aniqlaydi, toʻldiradi yoki izohlaydi. Masalan, “katta uy”, “talabaning kitobi”, “uch nafar oʻquvchi” kabi birikmalarda “uy”, “kitob”, “oʻquvchi” bosh soʻz boʻlib, qolgan birliklar ergash komponent vazifasini bajaradi.

Otli birikmalarning nazariy asoslarini oʻrganishda ularning tuzilishi, grammatik bogʻlanish turlari, semantik xususiyatlari hamda sintaktik vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, otli birikmalar tarkiban ikki asosiy qismdan iborat boʻladi: bosh soʻz va ergash soʻz. Bosh soʻz odatda ot bilan ifodalanadi, baʼzi hollarda esa otlashgan sifat, son yoki feʼl shakllari ham bosh komponent vazifasida kelishi mumkin. Ergash soʻz esa turli soʻz turkumlari orqali ifodalanib, bosh soʻzning maʼnosini aniqlashtiradi. Ergash komponentning ifodalanishiga koʻra otli birikmalar quyidagi koʻrinishlarga ega boʻladi: sifatli birikmalar (chiroyli qiz), sonli birikmalar (besh kitob), olmoshli birikmalar (mening uyim), otli birikmalar (bolaning daftar), hamda feʼl shakllari orqali ifodalangan birikmalar (yozilgan xat, kelgan odam). Bu holat otli birikmalarning struktur-semantik jihatdan rang-barang ekanligini koʻrsatadi. Otli birikmalarda komponentlar oʻrtasidagi grammatik munosabatlar turli bogʻlanish usullari orqali

¹³ Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – М.: Высшая школа, 1972. – С. 13–15.



amalga oshadi. Ular asosan moslashuv, boshqaruv va bitishuv kabi uch turga ajratiladi. Moslashuv bog‘lanishida bosh va ergash so‘z o‘zaro egalik va kelishik qo‘shimchalari orqali uyg‘unlashadi (masalan, mening kitobim). Boshqaruv bog‘lanishida bosh so‘z ergash so‘zning ma‘lum grammatik shaklda kelishini talab qiladi (kitobni o‘qish). Bitishuv bog‘lanishida esa so‘zlar qo‘shimchasiz, faqat ma‘no jihatdan yaqinlashadi (katta uy). Semantik jihatdan otli birikmalar aniqlovchi, miqdoriy, egalik va izohlovchi kabi turlarga ajratiladi. Aniqlovchi birikmalar predmetning belgisi yoki xususiyatini bildiradi (oq ko‘ylak), miqdoriy birikmalar predmetning sonini ko‘rsatadi (o‘n kishi), egalik birikmalari tegishlilikni ifodalaydi (uning daftari), izohlovchi birikmalar esa predmetni aniqlashtiradi (shoir Alisher). Otli birikmalar gap tarkibida turli sintaktik vazifalarni bajaradi. Ular ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi yoki boshqa ikkinchi darajali bo‘laklar sifatida kelishi mumkin. Bu esa ularning nutqdagi funksional imkoniyatlari keng ekanligini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, otli birikmalar tilning sintaktik tizimida muhim o‘rin tutadi. Ular nutqning aniqligi, izchilligi va ifodaliligini ta‘minlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu sababli otli birikmalarning nazariy grammatik asoslarini chuqur o‘rganish nafaqat sintaksis nazariyasi, balki amaliy nutq madaniyati uchun ham katta ahamiyatga ega.

So‘z birikmasi – nutq va tafakkur jarayonida bir-biriga tobelanish yoki tenglik asosida birikkan, ma‘no va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan, yaxlit, biroq qismlarga ajraladigan, tushunchani ifodalovchi ikki yoki undan ortiq mustaqil ma‘noli so‘zlar birikmasi. Tilning eng muhim ijtimoiy vazifasi fikrni aniq shakllantirish, uni tushunarli ifoda etish, insonlarga fikr almashinuv vositasi sifatida xizmat qilishdir. Biz muloqot qiladigan til turli birliklardan iborat bolib ular tilda o‘ziga xos muhim bir vazifalarni bajaradi. Lingvistik jihatdan tahlil qilinganda esa til birliklari alohida ajratilib, aniqlanadi hamda izohlanadi. Tildagi ma‘lum bir qoidalar asosida so‘zlarning o‘zaro birikuvidan so‘z birikmasi hamda gaplar hosil bo‘ladi. Grammatikaning eng muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan sintaksisda so‘z birikmalari, gaplarning qurilishi hamda ifoda xususiyatlari o‘rganiladi. Sintaksis yunoncha “syntaxis” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, yopishtirish, bog‘lash kabi ma‘nolarni anglatadi. Grammatikaning ikkinchi qismi bo‘lib, unda so‘z birikmalari, gap turlari o‘rganiladi.¹⁴ Demak, sintaksis so‘z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi degan ikkita bo‘limni o‘z ichiga oladi. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning ma‘no, grammatik va ohang jihatdan birining boshqasiga tobe bo‘lib bog‘lanishi so‘z birikmasi deb ataladi. So‘zlar bir-biri bilan ikki xil bog‘lanadi: Teng bog‘lanish. Bunda bir so‘z boshqasiga tobe bo‘lmaydi, bir-biri bilan sanash ohangi yoki teng bog‘lovchilar yordamida bog‘lanadi. Masalan, Ertalab maydonda erkaklar va ayollar to‘planishdi. Gapida erkaklar va ayollar qo‘shilmasi teng bog‘lanishga misol bo‘la oladi. Teng bog‘lanish natijasida so‘z qo‘shilmasi tuziladi. Tobe bog‘lanish. Bunda bir so‘z boshqasiga tobe bo‘ladi: Ertalab to‘planishdi,

¹⁴ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 96-bet.





maydonda to'planishdi. Tobelikning asosiy belgisi: bir so'z boshqa so'zni izohlab keladi. Bir-biriga tobe bog'langan so'zlar so'z birikmasini hosil qiladi. So'z birikmasi tarkibida hokim va tobe so'zlar farqlanadi. So'z birikmasida ma'nosi izohlanayotgan so'z hokim so'z, uning ma'nosini ravshanlashtirib kelayotgan, izohlayotgan, to'ldirayotgan so'z tobe so'z hisoblanadi. So'roq hamma vaqt hokim so'zga qarab beriladi, so'roqqa javob bo'lgan so'z tobe so'z hisoblanadi: Shirin olma (qanday olma?). Hokim so'z ot, sifat, son, olmosh, ravish, umuman olganda, otlashgan so'zlar bilan ifodalansa, otli birikma hisoblanadi: baland bino, asalday shirin, intizomda birinchi, bolalarninghammasi, o'qdan tez, o'quvchilarning beshtasi. Hokim so'z fe'l va uning shakllari bilan ifodalansa, fe'li birikma hisoblanadi: kitobni o'qidi, ishni bajarib, tez yugurgan, daftarga yozmoq.

So'z va so'z birikmasi borasida tilshunos olimlar tomonidan turli fikrlar va qarashlar mavjud. Xususan, F. De. Sossyur so'z haqida shunday deydi: "So'z tushunchasi bizning tasavvurimizdagi konkret til birligi bilan teng emas. Tilning konkret birligini so'zdan qidirmaslik kerak".¹⁵

So'z birikmasi va sintagma. Sintagma fonetik hodisa bo'lib, unda ikki so'z o'zaro birikkanda mazmun yetakchi hisoblanmaydi, bitta mustaqil yoki bitta yordamchi so'z ham sintagmani tashkil etishi mumkin. Yoxud bir so'zning o'zi ham sintagma hisoblaniishi mumkin.¹⁶ So'z birikmasi esa eng kamida ikkita mustaqil so'zdan iborat bo'ladi.

So'z birikmasi va gap. Gap fikr, tasdiq yoki inkor hukmni bildirib, tugallangan ohang bilan aytiladi: ko'cha katta. So'z birikmasi esa atash ohangi bilan aytiladi: katta ko'cha. Gap bitta so'zdan ham iborat bo'lishi mumkin va u kesimlik qo'shimchalari bilan shakllangan bo'ladi, so'z birikmasi esa har doim eng kamida ikkita mustaqil so'zdan iborat bo'ladi: Bahor (gap). Atrof yam-yashil libosga burkangan (so'z birikmasi). Shu xususiyatlari bilan ular o'zaro farqlanadi. Tobelanish – tobe sintaktik munosabatda bo'lish, so'z birikmasi yoki gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro teng bo'lmagan, sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga bo'ysunuvchi munosabati. Sintaktik jihatdan biri ikkichisiga bo'ysunadigan, biri ikkinchisiga tobe bo'lgan birliklar orasida tobe aloqa mavjud bo'ladi. Tobe aloqada bir uzv ikkinchisiga nisbatan tobe, ikkinchisi esa unga nisbatan hokim vaziyatda bo'ladi. Masalan: aniqlovchi aniqlanmish, to'ldiruvchi kesim, ega kesim aloqalari tobe aloqadir: go'zal hayot, hunarni sevmok, dalalar yashnamoqda kabi. Ega va kesim munosabatida hokim qism, qolgan turdagi birikuvlarda esa tobe qism oldin keladi. Tobe aloqaning uch xil turi bor: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. Hokim va tobe so'zlarning o'zaro so'z tartibi hamda ohang

¹⁵ Isomiddinova Sh., Komilova G. "So'z birikmasi haqida ma'lumot. So'z birikmasining birikish usullari" INTEGRATSIYALASHGAN VA TADQIQOTLAR JURNALI. May 2023

¹⁶ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: Ilm ziyo, 2011. – 12–14-betlar.



yordamida birikishiga bitishuv deyiladi. Bitishuv yo‘li bilan bog‘lanish sifatlovchi-sifatlanmish (yangi libos), izohlovchi-izohlanmish (shoir Erkin Vohidov), qisman hol-hollanmish (to‘satdan uchrab qolmoq) munosabatidagi birikmalarga xos bo‘lib, uning qismlari ifoda materialiga ko‘ra turlicha bo‘ladi:

- sifat + ot: ziyrak bola, yam-yashil dala;
- ot + ot: temir darvoza, oltin kuz;
- son + ot: besh kishi, o‘n tup ko‘chat;
- olmosh + ot: barcha xalqlar, shu yo‘l;
- sifatdosh + ot: sinalgan odam, aytilgan so‘z;

Moslashuv. O‘zbek tilida qaratqich va qaralmishning aloqasi bog‘lanishning alohida turini tashkil qiladi. Bunda so‘zlardan birini hokim, birini tobe deb qarash qiyin, chunki qaralmishning talabi bilan qaratuvchi bo‘lak qaratqich kelishigi shaklini oladi, o‘z navbatida, qaratuvchining talabiga ko‘ra qaralmish egalik affiksini qabul qiladi: bolalarning quvonchi, mening kitobim, sening daftaring, ularning vazifasi kabi. Bunda munosabatdorlik (o‘zaro hokimlik, tobelik) kuzatiladi. Bunda bog‘langan har ikki so‘z bir-biriga muvofiqlashib, tobe so‘z shu aloqaga mos hokim so‘z formada keladi, ulardan birining o‘zgarishi bilan boshqasi ham o‘zgarib, shunga mos formaga o‘tadi va o‘z shakllanishini unga barobarlashtiradi. Masalan, terimchining hikoyasi. Qaratqich bilan qaralmish moslashuv yo‘li bilan bog‘lanadi, shaxs va sonda moslashadi. Bunday tobelanishning asosiy xususiyati tobelanish bir qismning boshqasini aniqlashga xizmat qildirishidir. Tobe so‘z bilan hokim so‘z bir-biriga moslashadi, harakat, belgi va predmetning qaysi predmetga tegishlilik ko‘rsatiladi. Masalan, mening vatanim, gullarning guli, talabalarning o‘qishi. Gullarning guli – Nargis. Bunda guli (hokim) so‘z talaba bilan gullarning (tobe so‘z) qaratqich kelishik qo‘shimchalarini olib kelgan. Dutorimning torlari qo‘sh bulbuldek sayraydi kabi. Moslashuv hodisasi so‘z birikmasining doirasi bilangina cheklanmaydi. Ega va kesim moslashuv yo‘li bilan bog‘lanadi. Qaratuvchili birikma ifodalaydigan ma’nolar deb xoslik, butunning bo‘lagi, to‘dadan ajratilgan qism, o‘ringa, vaqtga munosabat ma’nolari ta’kidlanadi. Asli bu ma’nolar – birikmaning ma’nolari emas, balki qaratuvchi, qaralmish bo‘lib keladigan leksemalardan anglashiladigan ma’nolar. Qaratuvchili birikmada turlovchilar paradigmasining bir vakili qaratqich kelishigi bilan nisbatlovchilar paradigmasi morfemalari orasidagi bog‘liqlik namoyon bo‘ladi. Bunda kelishik sintaktik aloqani ta’minlashda qatnashadi va sintaktik vazifa ko‘rsatkichi bo‘ladi. Nisbatlovchi esa sintaktik aloqani ta’minlashda qatnashadi, lekin shakl o‘zgartiruvchi ekanidan qat’i nazar, sintaktik vazifaga nisbatan betaraf bo‘ladi.

Boshqaruv. Tobe so‘zning hokim so‘z talab etgan shaklda kelishi boshqaruv deyiladi. Bunda boshqariluvchi so‘z bosh va qaratqich kelishigidan tashqari boshqa kelishik shaklini yoki ko‘makchini olib keladi. Boshqariluvchining qaysi kelishik yoki ko‘makchi bilan shakllanishi boshqaruvchi so‘zning ma’nosi, semantikasi bilan belgilanadi: kitobni o‘qimoq, qariyalarga g‘amxo‘rlik qilmoq, universitetda o‘qimoq,



ishdan qaytmoq, o'quvchilar bilan suhbatlashmoq kabi boshqaruv ikki xil bo'ladi: kelishikli boshqaruv va ko'makchili boshqaruv. Kelishikli boshqaruvda boshqariluvchi so'z ma'lum kelishik shaklida qo'llanadi: kattalarni hurmat qilmoq, tog'ga chiqmoq kabi. Ko'makchili boshqaruvda boshqariluvchi so'z ko'makchi orqali shakllanadi: zavq bilan ishlamoq, telefon orqali gaplashmoq kabi. Boshqaruv usuli bilan bog'lanish to'ldiruvchi-to'ldirilmish, hol-hollanmish munosabatlarini yuzaga keltiradi.

Grammatikada so'zlarning so'z birikmalari va gaplarga, sodda gaplarning esa qo'shma gaplarga birikish usullarini, so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ma'nosi va vazifalarini o'rganadigan bo'limi. Sintaksis so'z birikmasini va gapni tekshiradi, uning asosi gap haqidagi ta'limotdir. So'z birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning ma'no va gramatik jihatdan birining ikkinchisiga tobelanish yo'li bilan bog'lanishidir, gap esa undan farqli o'laroq tugallangan fikrni ifodalaydi. So'z birikmalari ikki mustaqil so'zdan, birinchi so'z tobe, ikkinchi so'z esa hokim so'zdan iborat bo'ladi. Masalan, litsey kutubxonasi birikmasida kutubxona so'zi hokim, litsey so'zi esa unga tobedir. Sintaktik valentlik nazariyasi nuqtai nazaridan ham ikkichi so'z hokim mavqeyga ega. Yuqorida berilgan litsey so'zi ham, kutubxona so'zi ham biri ikkinchisiga tobe bo'lmagan mustaqil so'zlarni ifodalayapti. Ammo ular nutqqa ko'chirilganda ularning birinchisi ham ikkinchisi ham tobe holatda funksional faollik oladi. Buni quyidagicha izohlash mumkin: birinchi so'z tildan nutqqa qaratqich kelishigining affiksi -ning vositasida ko'chirilayotgan bo'lsa, ikkinchisi -si egalik affiksi yordamida nutqqa kirmoqda: litsey(ning) kutubxona(si). Ayni paytda ularga funksional faollik berayotgan kelishik va egalik affikslari ushbu holatda muhim hisoblanadi. Darhaqiqat, so'z birikmasi va so'z qo'shilmasi bir xil ma'noga ega. Ingliz tilida so'z birikmasi (the phrase) xuddi o'zbek tilidagi singari ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi. Ingliz tilida so'z birikmalarining noun phrase (the massive dinosaur), adjective phrase (very happy), adverb phrase, (too slowly) prepositional phrase (at lunch). Qaratqich kelishigidagi -ning qo'shimchasini ifodalash uchun "of" predlogi orqali yoki apostrof "s" dan foydalaniladi. Har ikki holatda ham tarjima bir xil bo'ladi. Egalikni ifodalaganda esa personal pronoun (kishilik olmoshi)ga murojaat qilamiz, lekin litsey kutubxonasi birikmasidagi -si egalik qo'shimchasini ifodalash uchun kishilik olmoshini ishlatish shart emas. Masalan: The library of lyceum yoki lyceum's library. The library of lyceum odatda ko'proq ishlatiladi, chunki "of" predlogi asosan narsa buyumlarga nisbatan ishlatiladi, apostrof "s" esa shaxslarga nisbatan ishlatiladi, Masalan: Ulug'bek's computer, Anvar's notebook etc.

O'zbek tilida so'z birikmasida -ning qaratqich kelishigi qo'shimchasi yashirin holatda kelishi mumkin, biroq ingliz tilida "of" yoki apostrof "s" ni tashlab ketishning iloji yo'q. Litsey kutubxonasi birikmasida -si egalik qo'shimchsini tashlab ketishning iloji yo'q. Ingliz tilida keltirilgan misolda esa the library of lyceum yoki lyceum's library da egalik qo'shimchsi berilmagan, lekin tarjimada litsey kutubxonasi tarzida tarjima qilinadi. Ma'lumki, otli so'z birikmalari qaratqich qaralmish shaklida ham



bitishuv munosabatidagi aniqlovchi-aniqlanmish shaklida ham ifodalanadi. Ikkala holatda ham ular bir-biriga bog‘liq bo‘ladi. O‘tli so‘z birikmalaridagi qaratqich-qaralmish sintaktik derivatsiyasida qaratqich kelishigining affiksi -ning asosiy o‘rinda turadi. Derivatsion nuqtai nazardan mazkur affiks operator vazifasini bajaradi.¹⁷ Operator derivasiyaning har qanday turida (leksik, sintaktik, semantik derivasiyalar) ham hokim so‘z bo‘lib qo‘llanadi: Marg‘ilonlik qudalarigizning davlati oldida biznikini yo‘q desa bo‘ladur. (A.Qodiriy O‘tkan kunlar 162-bet) Sodiqning javobi uning ustidagi yukni tag‘in ham og‘irlashtirgandek sezilib ulnboshini quyiga engashtirdi va chuvoq soqolini tuzatib fikrda qoldi. (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar 179-bet”).¹⁸

Keltirilgan misollarning birinchisida Qudalarigizning davlati, ikkinchisida esa Sodiqning javobi o‘tli so‘z birikmalari qo‘llanilib, bu birikmalarning sintaktik derivasiyasi operatori vazifasida -ning kelishik va -i egalik affikslari faollik ko‘rsatmoqda. Mazkur operator har ikki xolatda ham derivasiya operantlarining sintaktik bog‘lanishini tashkil etish orqali derivant shakllanishi uchun xizmat qilmoqda. Bunday vaziyatda dublooperatoridan foydalanilyapdi. Demak, bu dublooperator tarkibli ekanligi bilan sodda operatorlardan farqlanadi. Biroq bajaradigan funksiyalariga ko‘ra sodda va dublooperatorlar o‘rtasida farq yo‘q. Ingliz tilida ushbu misollar uchun apostrof “s” ni ishlatish maqsadga muvofiq: Sodiq’s answer, relatives’ wealth kabi. Apostrofdan oldin”s” bo‘lsa -ning deb, apostrofdan keyin “s” bo‘lsa -larning deb tarjima qilinadi. Demak, -ning affiksi so‘z tarkibidan tushirilgan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, ikkinchi misolda berilgan so‘z birikmasini Sodiqning javobi tarzida tasavvur eta olamiz. Ammo bunday vaziyatda birikmaning sintaktik derivasiyasi operatorsiz yoki noto‘liq operatorli voqelangan, degan xulosaga kelmaslik lozim. Chunki tushirilgan affiks ham real ifodali morfema qanday derivatsion mavqega ega bo‘lsa, shunday ahamiyat kasb etadi: Qipchoq dushmani bo‘lgan otangiz Yusufbek hojini unutdingizmi? (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar). Berilgan misolda qipchoq dushmani o‘tli birikmasining sintaktik derivasiyasi belgisiz faollik ko‘rsatayotgan -ning affiks morfemasi (qipchoq+ning) vositasida ro‘y berayotganini ko‘ramiz. Bu singari belgisiz qo‘llanilgan morfemani istalgan paytda o‘z o‘rniga tiklash mumkin. Ammo barcha tillarda ham bunday bo‘lavermaydi, misol uchun ingliz tilida “of” predlogini yoki apostrof”s”ni tashlab keta olmaymiz yashirin holda ham kelmaydi. Agarda gapning ma‘nosi o‘zgarib ketishi mumkin. Alisher yo‘lda ketayotib, bodom ko‘z, qo‘ng‘ir sochli bir qizga ko‘zi tushdi. Keltirilgan misoldagi bodom ko‘z, qo‘ng‘ir soch birikmalari sintaktik derivasiyasi nol operatorga asoslanmoqda. Birikmaning o‘zaro sintaktik bog‘lanish ma‘nosi biri ikkinchisiga munosib. Agar ma‘nolari to‘g‘ri kelmasa ular o‘rtasida a‘loqa bog‘lana

¹⁷ Tumiyozov N., Tumiyozov B., Tumiyozova Sh. “O‘zbek tili derivatsion sintaksisi” –Toshkent, 2011. –287 b.

¹⁸ Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2018.





olmaydi. Qiyoslang: sholgʻom ogʻiz; keksa bola. Shu bois birikma sintaktik derivatsiyasi bunday vaziyatda semantik operatorli deb atalishi ham mumkin. Ammo derivatsion jarayon morfologik vositasiz roʻy berayotgani uchun ayni paytda nol operator tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mirzakarim isimlik qirq besh-elli yoshlar chamasida qora qosh, qora koʻz, koʻrkam yuz, yaxshigina koʻringan bir kishi boʻlib, Akram hoji elli besh yoshlar orasidagi bir keksa edi (A. Qodiriy “Oʻtkan kunlar”). Keltirilgan misoldagi qora qosh, qora koʻz, koʻrkam yuz birikmalari sintaktik derivatsiyasi nol operagotga asoslanmoqda. Chunki birikma biror morfologik vositaning ishtirokisiz ifodalanayapti. Gapda birikma komponentlari ularning maʼnolariga koʻra bogʻlanayapti. Bitishuv usulida shakllangan oʻtli birikmalar komponentlarining distributiv xususiyati aksariyat xollarda ular oʻrtasiga boshqa morfologik vositalarning kiritilishiga monelik qiladi: kumush qoshiq, chiroyli qiz, yaxshi bola, ajoyib inson, tosh yoʻl, bilimli bola, va h.k. Biroq manbalarda oʻtli birikmalarning, ayniqsa, sifat+ot modelidagi birikmalarning kengaytirilgan, yaʼni uch, toʻrt komponentli koʻrinishlari mavjudligi ham eʼtirof etiladi: dandon sopli pichoq, uzun boʻyli bola, qora sochli qiz va h.k. Bunday birikmalarni bitishuv usulida deb boʻlmaydi. Derivatsion nuqtai nazardan ham ular nol operatorli birikmalarni ifodalamaydi. Chunki bunday birikmalarda real operatorlar faollik koʻrsatadi. Masalan, dandon sopli pichoq birikmasining sintaktik derivatsiyasi -li affiksi bilan ifodalangan real operatorga asoslanayotganini koʻramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – М.: Высшая школа, 1972. – С. 13–15.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 96-bet.
3. Isomiddinova Sh., Komilova G. “Soʻz birikmasi haqida maʼlumot. Soʻz birikmasining birikish usullari” INTEGRATSIYALASHGAN VA TADQIQOTLAR JURNALI. May 2023
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: Ilm ziyo, 2011. – 12–14-betlar.
5. Turniyozov N., Turniyozov B., Turniyozova Sh. Oʻzbek tili derivatsion sintaksisi. – Toshkent, 2011. – 287 b.
6. Abdulla Qodiriy. Oʻtkan kunlar. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2018.